**O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI**

# Yong‘oq mag‘izlarini bozorga chiqarish va tijorat sifatini nazorat qilishga doir standart

**(DDP-02:2002, IDT)**

**Rasmiy nashr**

**O‘zbekiston standartlar instituti**
**Toshkent**

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## So‘zboshi

**1** O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

**2** O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

**3** Ushbu standart DDP-02:2026 “Concerning the marketing and commercial quality control of” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

**4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI**

*Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.*

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## IZOH

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni yengillashtirish, yuqori sifatli ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, rentabellikni oshirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. UNECE standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ular yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot olish uchun veb-saytimizga tashrif buyuring: <www.unece.org/trade/agr>.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarning biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

# O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

# YONG‘OQ MAG‘IZLARINI BOZORGA CHIQARISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISHGA DOIR STANDART

# КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ЯДЕР ГРЕЦКИХ ОРЕХОВ

# CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF WALNUT KERNELS

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026 yil

## I Mahsulotni belgilash

Ushbu standart *Juglans regia L.* turiga mansub navlardan (kultivarlardan) yetishtirilgan yong‘oq mag‘izlariga tatbiq etiladi.

## II Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi yong‘oq mag‘izlari tayyorlangan va qadoqlangandan keyin, eksport nazorati bosqichida ularga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

### A. Minimal talablar[1]

**(i) Har bir nav uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chetlanishlarni hisobga olgan holda, barcha navdagi yong‘oq mag‘izlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:**

- Saqlanish sifatini ta’minlash uchun yetarli darajada quruq bo‘lishi
- Sog‘lom bo‘lishi; chirish yoki buzilish ta’siriga uchragan hamda iste’molga yaroqsiz holga kelgan mahsulot chiqarib tashlanadi;
- Qattiq va zich bo‘lishi
- Yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi; burishgan mag‘izlar chiqarib tashlanadi;
- Toza, amalda ko‘rinadigan begona moddalardan va qobiqdan xoli bo‘lishi;
- Rivojlanish bosqichidan qat’i nazar, hasharotlar yoki kanalardan xoli bo‘lishi;
- Zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlardan xoli bo‘lishi;
- Achiganlik yoki moysimon ko‘rinish belgilaridan xoli bo‘lishi;
- Mog‘ordan xoli bo‘lishi;
- Me’yordan ortiq tashqi namlikdan xoli bo‘lishi;
- Begona hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi.

Yong‘oq mag‘izlarining holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- Transportda tashish va yuklash-tushirish jarayonlariga bardosh berishi;
- Belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi.

1. Nuqsonlarning ta’riflari ushbu standartga ilovada keltirilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**(ii) Namlik miqdori:**

- Yong‘oq mag‘izlarining namlik miqdori 5 % dan oshmasligi kerak[2].

**B. Tasnif**

Yong‘oq mag‘izlari sifati va rangiga ko‘ra quyida belgilangan uchta sinfga ajratiladi.[3]

**(i) Oliy nav[4]**

Ushbu navdagi yong‘oq mag‘izlari oliy sifatli, bir xil och rangli bo‘lishi, ularda amalda to‘q somonrang va/yoki limon-sariq tus bo‘lmasligi hamda to‘q jigarrang tus mavjud bo‘lmasligi kerak.

Ular nav va/yoki tovar turiga xos bo‘lishi kerak.[5] Mahsulotning umumiy ko‘rinishi, sifati, saqlanish sifati yoki qadoqdagi taqdim etilishiga ta’sir qilmaydigan juda yengil yuzaki nuqsonlar bundan mustasno, ular amalda nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak.

Ishqalanish izlariga quyidagilarda yo‘l qo‘yiladi:

- Chorak bo‘laklar va barcha mayda bo‘laklarda;
- Yarim bo‘laklarda, agar bu izlar po‘st yuzasining 10 % idan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplasa.

**(ii) Birinchi nav[4]**

Ushbu navdagi yong‘oq mag‘izlari yaxshi sifatli, och jigarrang va/yoki limon-sariq rang-dan to‘q bo‘lmagan rangda bo‘lishi kerak.

Ular nav va/yoki tovar turiga xos bo‘lishi kerak.[5] Mahsulotning umumiy ko‘rinishi, sifati, saqlanish sifati yoki qadoqdagi taqdim etilishiga ta’sir qilmaydigan yengil nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Ishqalanish izlariga quyidagilarda yo‘l qo‘yiladi:

- Chorak bo‘laklar va barcha mayda bo‘laklarda;
- Yarim bo‘laklarda, agar bu izlar po‘st yuzasining 20 % idan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplasa.

**(iii) Ikkinchi nav[5]**

Ushbu sinfga yuqori sinflarga kiritish uchun talabga javob bermaydigan, biroq yuqorida belgilangan eng kam talablarga mos keladigan mag‘izlar kiradi. Ushbu sinfdagi yong‘oq mag‘izlari to‘q jigarrangdan ham to‘q bo‘lmagan rangda bo‘lishi kerak. Rang qadoqda ko‘rsatil-gan taqdirda, yanada to‘q rangli mag‘izlar ushbu navda bozorga chiqarilishi mumkin.

---

2 Qo‘llaniladigan usul quruq mevalarda (qobiqdagi yong‘oqlar va mag‘izlar) namlik miqdorini aniqlash uchun laboratoriyalararo sinovlarda qoniqarli natijalar berishi isbotlangan hamkorlikda sinovdan o‘tkazilgan usullardan biri bo‘lishi kerak. Ushbu usullar standart tuzilmasida keltirilgan hamda ushbu standartga ilovada qayta berilgan. Nizo yuzaga kelgan hollarda laboratoriya etalon usuli qo‘llanilishi kerak.

3 Ruxsat etilgan ranglarni aks ettiruvchi rasmiy rang jadvali Ixtisoslashtirilgan seksiya 49-sessiyasidan (2002-yil 21–24-may) keyin UNECE Kotibiyatining Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘limidan quyidagi manzil bo‘yicha olinishi mumkin: 432-xona, Millatlar saroyi, 1211 Jeneva, Shveytsariya.

4 Mag‘izlar tovar nomi bilan belgilanishi mumkin, bunda tamg’alash sinfi ham ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

5 Tovar turi: har bir qadoqdagi yong‘oq mag‘izlari umumiy turi va ko‘rinishi bo‘yicha o‘xshash bo‘ladi va/yoki ishlab chiqaruvchi mamlakat tomonidan rasman belgilangan navlar aralashmasiga mansub bo‘ladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Rang qadoqda ko‘rsatilgan taqdirda, yanada to‘q rangli mag‘izlar ushbu sinfda bozorga chiqarilishi mumkin. Yong‘oq mag‘izlari umumiy ko‘rinishi, sifati, saqlanish sifati va taqdim etilishi bo‘yicha o‘ziga xos asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan taqdirda, nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Ushbu sinfga, shuningdek, turli rangdagi mag‘izlar aralashmalari ham kiradi va ular tamg’alashda “aralash ranglar” so‘zlari bilan belgilanadi. Ishqalanish izlari nuqson deb hisoblanmaydi.

## III. O‘lchamlarga oid qoidalar

Yong‘oq mag‘izlari ko‘rinishiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

(i) yarim bo‘laklar: mag‘izlar taxminan teng va butun ikki qismga ajratilgan bo‘ladi;

(ii) chorak bo‘laklar: mag‘izlar uzunasi bo‘yicha taxminan teng to‘rt bo‘lakka ajratilgan bo‘ladi;

(iii) yirik bo‘laklar: “kertilgan mag‘iz”[6] dan kichik, biroq “siniq bo‘lak”dan katta bo‘lgan qismlar;

(iv) siniq bo‘laklar: 8 mm o‘lchamli kalibrlash elagidan o‘ta oladigan, biroq 3 mm o‘lchamli kalibrlash elagidan o‘ta olmaydigan mag‘iz qismlari;

(v) yirik bo‘laklar va yarim bo‘laklar: yirik bo‘laklar (iii) va yarim bo‘laklar (i) ko‘rinishlariga mos keladigan mag‘izlar aralashmasi bo‘lib, undagi yarim bo‘laklar ulushi tamg‘alashda ko‘rsatilishi mumkin.

Turli ko‘rinishlar rang, shakl va o‘lchamga oid ilovada aks ettirilgan.

Tamg’alashda ko‘rinish belgilanishidan tashqari, 1 kg dagi bo‘laklar soni ixtiyoriy ravishda ko‘rsatilishi mumkin.

## IV. Ruxsat etilgan Og’ishlarga oid qoidalar

Ko‘rsatilgan sinf talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir qadoqda sifat, rang va tur bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlarga yo‘l qo‘yiladi.

---

6. “Kertilgan mag‘iz” deganda “yarim bo‘lak”ning kamida to‘rtdan uch qismini tashkil etuvchi qism tushuniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

### A. Sifat va rang bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

| Ruxsat etilgan nuqsonlar[a] | Ruxsat etilgan chetlanishlar (mag‘izlar og‘irligiga nisbatan % da) | | |
|---|---|---|---|
| | “Ekstra” sinf | I sinf | II sinf |
| (1) Eng kam talablarga javob bermaydigan mag‘izlar, shu jumladan quyidagilardan ko‘p bo‘lmagan miqdorda: | 4 | 6 | 8 |
| — chirigan mag‘izlar | 0.5 | 1 [b] | 2 [b] |
| — mog‘orlagan mag‘izlar | 0.5 | 1 [b] | 2 [b] |
| — qobiq bo‘laklari yoki begona moddalar | 0.1 | 0.1 | 0.1 |
| (2) Rangi to‘qroq bo‘lgan mag‘izlar | 8 | 9 | 10 |
| (3) Ishqalanish izlari (faqat yarim bo‘laklarda) | 10 | 10 | - |

[a] Nuqsonlarning ta’riflari ushbu standartning II ilovasida keltirilgan.

[b] Polsha 0,5 % dan oshmaydigan ruxsat etilgan chetlanish tarafdori ekanligi bo‘yicha izoh bildirgan.

### B. Mineral aralashmalar

Kislotada erimaydigan kul miqdori 1 g/kg dan oshmasligi kerak.

### C. O‘lchamlar bo‘yicha ruxsat etilgan og’ishlar

Barcha ko‘rinishlar uchun tamg‘alashda ko‘rsatilgan ko‘rinishga mos keladigan mag‘izlarning eng kam % miqdori talab etiladi hamda ko‘rsatilgan ko‘rinishdan farq qiladigan mag‘izlarning og‘irlik bo‘yicha eng ko‘p % miqdoriga yo‘l qo‘yiladi:

| Ko‘rinish | Ruxsat etilgan eng kam % miqdori va chetlanishlar (mag‘izlar og‘irligiga nisbatan % da) | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Yarim bo‘laklar | Kertilgan mag‘izlar | Chorak bo‘laklar | Yirik bo‘laklar | Siniq bo‘laklar | Parchalar |
| Yarim bo‘laklar | 85[a] | 15[b] | 5[c] | | 1[c] | 1[c] |
| Chorak bo‘laklar | | | 85[a] | 15[b] | 5[c] | 1[c] |
| Yirik bo‘laklar | | | | 85[a] | 15[b] | 1[c] |
| Siniq bo‘laklar | | | | 10[b] | 90[a] | 1[d] |
| Yirik bo‘laklar va yarim bo‘laklar | 20 [b] | | | 65[a] | 15[b] | 1[c] |

[a] Eng kam % miqdori.

[b] Ruxsat etilgan chetlanishlar.

[c] 15 % chetlanish tarkibiga kiritilgan.

[d] 10 % chetlanish tarkibiga kiritilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

### A. Bir xillik

Har bir qadoq tarkibi bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqish joyi, hosil yili, sifat, ko‘rinish va, qo‘llanilganda, bir xil nav hamda tovar ko‘rinishidagi mag‘izlardan iborat bo‘lishi kerak.

Rang bo‘yicha bir xillik “Ekstra” sinf va I sinf uchun majburiy hisoblanadi.

Biroq, shakl bo‘yicha, 15 mm o‘lchamli to‘rdan o‘tadigan “yarim bo‘laklar” hamda “kertilgan mag‘izlar” “yirik bo‘laklar” toplariga cheklovsiz kiritilishi mumkin.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi uning butun tarkibini ifodalashi kerak.

### B. Qadoqlash

Yong‘oq mag‘izlari mahsulotni tegishli darajada himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Agar yog‘och qadoqdan foydalanilsa, mahsulot qadoqning tag qismi, yon tomonlari va qopqog‘idan qog‘oz yoki mos himoya materiali bilan ajratilgan bo‘lishi kerak.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar yangi, toza va mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatda bo‘lishi kerak. Savdo tavsiflari tushirilgan materiallardan, xususan qog‘oz yoki yorliqlardan foydalanishga, bosma yozuv yoki tamg‘alash toksik bo‘lmagan siyoh yoki yelim bilan bajarilgan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

Mag‘izlar havo o‘tkazmaydigan germetik yopilgan idishlarda, vakuumda yoki inert gaz muhitida qadoqlanishi mumkin.

### C. Taqdim etish shakli

Mag‘izlar quyidagi shakllarda taqdim etilishi kerak:

— iste’molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish uchun mo‘ljallangan, bir xil og‘irlikdagi kichik birlik qadoqlarda[7];

— yirik hajmda qadoqlangan holda.

## VI. TAMG’ALASHGA OID QOIDALAR

Har bir qadoqda quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan qilib yozilgan va tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi kerak:

### A. Identifikatsiya belgilari

Qadoqlovchi va/yoki Jo‘natuvchi — nomi va manzili yoki rasmiy berilgan yoxud qabul qilingan kod belgisi.[8]

---

[7] Ayrim import qiluvchi mamlakatlarning qoidalari yopiq qadoqlar uchun sof og‘irliklarning muayyan diapazoniga rioya etilishini talab qiladi.

[8] Bir qator Yevropa mamlakatlarining milliy qonunchiligi nomi va manzilini aniq ko‘rsatishni talab qiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**B. Mahsulotning tavsifi**

- “Yong‘oq mag‘izlari”;
- “Ekstra” nav va I nav uchun, qo‘llanilganda, nav yoki tovar turining nomi; (II nav uchun ixtiyoriy).

**C. Mahsulotning kelib chiqishi**

- Kelib chiqqan mamlakat va, ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan tuman yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy joy nomi.

**D. Tijorat tavsiflari**

- Nav va, ixtiyoriy ravishda, tovar nomi; II nav uchun, qo‘llanilganda, „aralash ranglar“ so‘zlari;
- Ko‘rinishi (“yarim bo‘laklar”, “chorak bo‘laklar”, “yirik bo‘laklar”, “siniq bo‘laklar” yoki “yirik bo‘laklar va yarim bo‘laklar”) va, ixtiyoriy ravishda, 1 kg dagi bo‘laklar soni;
- Hosil yili (ixtiyoriy, import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq majburiy bo‘lishi mumkin)
- Sof og‘irligi
- “Eng yaxshi iste’mol muddati” so‘zlaridan keyin sana ko‘rsatiladi (ixtiyoriy).

**E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)**

Ushbu standart birinchi marta 1983-yilda nashr etilgan.

1996-yilda yong‘oq mag‘izlari bo‘yicha UNECE tavsiyasi sifatida ikki yillik sinov muddati uchun qayta ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan.

1998-yilda sinov muddati bir yilga uzaytirilgan.

1999-yilda sinov muddati yana bir yilga uzaytirilgan.

2001-yilda qayta ko‘rib chiqilgan UNECE standarti sifatida qabul qilingan.

2002-yilda yangi I ilova kiritilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

# I ILOVA
# QURUQ MAHSULOTLARDA (YONG‘OQLARDA) NAMLIK MIQDORINI ANIQLASH
# 1-USUL — LABORATORIYA ETALON USULI

## 1. Qo‘llanish doirasi va qo‘llanilishi

Ushbu etalon usul qobiqdagi yong‘oqlar hamda qobig‘i ajratilgan yong‘oqlar mag‘izlar) uchun namlik va uchuvchan moddalar miqdorini aniqlashga xizmat qiladi.

## 2. Havola

Ushbu usul ISO tomonidan belgilangan quyidagi usulga asoslanadi: ISO 665:2000, Moyli urug‘lar — Namlik va uchuvchan moddalar miqdorini aniqlash.

## 3. Ta’rif

Quruq mahsulotlar (qobiqdagi yong‘oqlar va qobig‘i ajratilgan yong‘oqlar) uchun namlik miqdori va uchuvchan moddalar miqdori — o‘rtacha o‘lchamdagi moyli urug‘lar uchun ISO 665:2000 standartida belgilangan ish sharoitlarida o‘lchangan massa yo‘qotilishidir (ISO 665:2000 standartining 7.3-bandiga qarang). Namlik miqdori boshlang‘ich namuna massasiga nisbatan % larda ifodalangan massaviy ulush sifatida beriladi.

Butun yong‘oqlar uchun, namlik miqdori butun yong‘oq bo‘yicha ham, mag‘iz bo‘yicha ham ifodalangan hollarda, ushbu ikki qiymat o‘rtasida nizo yuzaga kelsa, butun yong‘oq bo‘yicha namlik miqdori qiymati ustuvor hisoblanadi.

## 4. Tamoyil

Sinov uchun ajratilgan namuna qismidagi namlik va uchuvchan moddalar miqdorini atmosfera bosimida quritish shkafida 103 ± 2 °C haroratda, amalda doimiy massa hosil bo‘lguncha quritish orqali aniqlash.

## 5. Jihozlar (batafsil ma’lumot uchun ISO 665:2000 standartiga qarang)

**5.1** 1 mg yoki undan yaxshi sezgirlikka ega analitik tarozi.

**5.2** Mexanik tegirmon.

**5.3** 3 mm o‘lchamli dumaloq teshikli elak.

**5.4** Sinov uchun ajratilgan namuna taxminan 0,2 g/cm² zichlikda (taxminan 5 mm balandlikda) yoyishga imkon beradigan, yaxshi yopiladigan qopqoqlarga ega shisha, chinni yoki korroziyaga chidamli metall idishlar.

**5.5** Odatiy ish rejimida 101 °C dan 105 °C gacha sozlanishi mumkin bo‘lgan termostatik boshqaruvli elektr quritish shkafi.

**5.6** Samarali quritgich modda solingan eksikator.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## 6. Tartib

O‘rtacha o‘lchamdagi moyli urug‘lar uchun ISO 665:2000 standartida belgilangan ish sharoitlariga rioya qilinadi (ISO 665:2000 standartining 7 va 7.3-bandlari), biroq sinov namunasini tayyorlashga oid quyidagi maxsus o‘zgartirishlar hisobga olinadi.

*ISO 665:2000 standartida 103 ± 2 °C haroratga sozlangan quritish shkafida 3 soatlik bitta boshlang‘ich davr belgilangan bo‘lsa-da, yong‘oqlar uchun 6 soatlik bitta boshlang‘ich davr tavsiya etiladi.*

### 6.a Mag‘izlarda namlik va uchuvchan moddalar miqdorini aniqlash

Qobig‘i ajratilgan yong‘oqlar uchun laboratoriya namunasi gomogenlashtiriladi va sinov namunasi sifatida kamida 100 g mag‘iz olinadi.Qobiqdagi yong‘oqlar uchun kamida 200 g olinadi hamda yong‘oq chaqgich yoki bolg‘a yordamida qobiq, qobiq bo‘laklari yoki zarralari ajratib tashlanadi; qolgan qismi sinov namunasi sifatida ishlatiladi. Mag‘iz po‘sti (kutikula yoki spermoderma) sinov namunasiga kiritiladi.

Olingan zarrachalar o‘lchami 3 mm dan katta bo‘lmaguncha sinov namunasi maydalanadi va elakdan o‘tkaziladi. Maydalash jarayonida pasta (moysimon un) hosil bo‘lishining, namunaning qizib ketishining va buning oqibatida namlik miqdori yo‘qolishining oldini olishga e’tibor qaratish kerak (masalan, mexanik oziq-ovqat maydalagichdan foydalanilganda, juda qisqa muddatli ketma-ket maydalash va elakdan o‘tkazish amallari orqali).

Sinov uchun ajratilgan namuna sifatida taxminan 10 g maydalangan mahsulot idish tubiga bir tekis yoyiladi, qopqog‘i yopiladi va idish butun holicha tortiladi. Bir xil sinov namunasi bo‘yicha ikkita aniqlash amalga oshiriladi.

### 6.b Butun yong‘oqlarda (qobiq va mag‘iz) namlik va uchuvchan moddalar miqdorini aniqlash

Laboratoriya namunasi gomogenlashtiriladi va sinov namunasi sifatida kamida 200 g yong‘oq olinadi. Sinov namunasidan barcha begona moddalar (chang, yorliqlar va boshqalar) olib tashlanadi.

Butun yong‘oqlar Rass tegirmoni, Romer tegirmoni yoki Brabender qurilmasi yoxud shunga o‘xshash jihoz yordamida, mahsulotni qizdirib yubormagan holda maydalanadi.

Sinov uchun ajratilgan namuna sifatida taxminan 15 g maydalangan mahsulot idish tubiga bir tekis yoyiladi, qopqog‘i yopiladi va idish butun holicha tortiladi. Bir xil sinov namunasi bo‘yicha ikkita aniqlash amalga oshiriladi.

## 7. Natijalarni ifodalash va sinov bayonnomasi

Hisoblash usuli va formulalar hamda sinov bayonnomasi bo‘yicha ISO 665:2000 standartida belgilangan barcha ko‘rsatmalarga (9 va 11-bandlar) hech qanday o‘zgartirishsiz rioya qilinadi.[9]

---

9. Belgilangan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

— namlik va uchuvchan moddalar miqdori boshlang‘ich namuna massasiga nisbatan % larda ifodalangan massaviy ulush sifatida beriladi;

— natija ikki aniqlashning arifmetik o‘rtacha qiymati hisoblanadi; ikki aniqlash o‘rtasidagi farq 0,2 % dan (massaviy ulush) oshmasligi kerak;

— natija verguldan keyin bir xona aniqlikda ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**8. Aniqlik**

Takrorlanuvchanlik va qayta ishlab chiqariluvchanlik shartlari uchun soya dukkaklari bo‘yicha ISO 665:2000 standartida belgilangan talablarga (10.2 va 10.3-bandlar) rioya qilinadi.

**2-USUL: TEZKOR USUL**

**1. Tamoyil**

*Namlik miqdorini qizdirish orqali massa yo‘qotilishi tamoyiliga asoslangan o‘lchash qurilmasi yordamida aniqlash. Qurilma galogen yoki infraqizil lampa hamda laboratoriya usuli bo‘yicha kalibrlangan o‘rnatilgan analitik tarozini o‘z ichiga olishi kerak.*

Shuningdek, elektr o‘tkazuvchanligi yoki qarshiligi tamoyiliga asoslangan, masalan, namlik o‘lchagichlar, namlik sinov qurilmalari va shunga o‘xshash qurilmalardan foydalanishga ham yo‘l qo‘yiladi, bunda qurilma sinovdan o‘tkazilayotgan mahsulot uchun laboratoriya etalon usuli bo‘yicha kalibrlangan bo‘lishi lozim.

**2. Jihozlar**

**2.1** Mexanik tegirmon yoki oziq-ovqat maydalagich.

**2.2** 3 mm o‘lchamli dumaloq tiqin elak, agar qurilmadan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomada boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa.

**2.3** 1 mg yoki undan yaxshi sezgirlikka ega o‘rnatilgan analitik tarozili galogen yoki infraqizil lampa.

**3. Tartib**

**3.1** Namunani tayyorlash

Agar qurilmadan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomada, xususan bo‘laklar diametriga nisbatan boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, laboratoriya etalon usuli uchun berilgan ko‘rsatmalarga (6.a va 6.b-bandlar) rioya qilinadi.

**3.2** Namlik miqdorini aniqlash

Agar qurilmadan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomada boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, aniqlash har biri taxminan 5 g dan 10 g gacha bo‘lgan ikkita sinov uchun ajratilgan namunada amalga oshiriladi.

Sinov uchun ajratilgan namuna oldindan yaxshilab tozalangan sinov idishi tubiga yoyiladi va sinov uchun ajratilgan namunaning og‘irligi 1 mg aniqlikkacha qayd etiladi.

Sinovdan o‘tkaziladigan mahsulot uchun qurilmadan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomada ko‘rsatilgan tartibga, xususan haroratni sozlash, sinov davomiyligi va og‘irlik ko‘rsatkichlarini qayd etish bo‘yicha ko‘rsatmalarga rioya qilinadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## 4. Natijalarni ifodalash

**4.1** Natija

Takrorlanuvchanlik shartlari (4.2) bajarilgan taqdirda, natija ikki aniqlashning arifmetik o‘rtacha qiymati bo‘lishi kerak. Natija verguldan keyin bir xona aniqlikda ko‘rsatiladi.

**4.2** Takrorlanuvchanlik

Bir xil operator tomonidan, bir xil sharoitlarda, aynan bir xil sinov materiali bo‘yicha bir vaqtda yoki ketma-ket darhol bajarilgan ikki aniqlashning tegishli natijalari o‘rtasidagi mutlaq qiymatdagi farq 0,2 % dan oshmasligi kerak.

## 5. Sinov bayonnomasi

Sinov bayonnomasida qo‘llanilgan usul va olingan natijalar ko‘rsatilishi kerak. Bayonnoma namunani to‘liq identifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## II ILOVA

## YONG‘OQ MAG‘IZLARI UCHUN NUQSONLAR TA’RIFI

Mag‘izning tashqi ko‘rinishi yoki iste’molga yaroqliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan har qanday nuqson, shu jumladan:

— Dog‘lanish yoki rang o‘zgarishi**:** mag‘iz yuzasining sakkizdan bir qismidan ko‘prog‘ini qoplaydigan hamda mag‘izning qolgan qismi rangidan yaqqol farq qiladigan g‘ayritabiiy ranglanish (to‘q dog‘lar yoki rangsizlangan joylar);

— Singib qolgan kir: mag‘iz to‘qimasiga kir yoki boshqa begona material singib qolgan mag‘izlar yoki mag‘iz qismlari;

— Mag‘iz hajmining 5 % dan ortiq qismi ezilishi;

— Quritish nuqsoni: mag‘iz nam, yumshoq yoki terisimon bo‘ladi.

*Parchalar*: 3 mm diametrli kalibrlash elagidan o‘ta oladigan mag‘iz va po‘st parchalari.

*Qobiq*: tashqi qobiq va/yoki mag‘iz yarim bo‘laklari orasidagi yog‘ochsimon to‘siq (ichki markaziy to‘siq), shuningdek, ularning har qanday parchalari.

*Burishgan mag‘izlar:* jiddiy darajada kichraygan, burishgan va qattiqlashgan mag‘iz.

*Mog‘or:* oddiy ko‘z bilan ko‘rinadigan mog‘or tolalari.

*Chirish:* mikroorganizmlar ta’sirida yuzaga kelgan sezilarli parchalanish.

*Hasharotlar shikasti:* hasharotlar yoki boshqa hayvon parazitlari tomonidan yetkazilgan ko‘rinadigan shikastlanish, o‘lik hasharotlar yoki hasharot qoldiqlarining mavjudligi.

*Begona moddalar:* odatda mahsulot bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday modda yoki material.

*Mineral aralashmalar:* kislotada erimaydigan kul.

*Achiganlik:* lipidlarning oksidlanishi yoki erkin yog‘ kislotalarining hosil bo‘lishi natijasida yoqimsiz ta’m paydo bo‘lishi.

*Begona hid yoki ta’m:* mahsulotga xos bo‘lmagan har qanday hid yoki ta’m.

STANDARTLAR INSTITUTI #THXYMXN7C7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI